

{ BIRINCHI KITOBIM }

Zebo Xudoyberdiyeva

# Yo'l boshida

she'rlar

Toshkent  
«Akademnashr»

2015

MAJBURIY NUSXA

UO'K: 821.512.133-1 - 935. apad.

KBK: 84(50)7

X-87

X-87 **Xudoyberdiyeva, Zebo**

Yo'l boshida / Z. Xudoyberdiyeva. – Toshkent: Akademya, 2015. – 32 b.

ISBN 978-9943-985-37-7

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)7


Aziz kitobxon!

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» yosh ijodkorlar seminarida chop etilishga tavsiya qilingan ushbu kitob sizning kitob javoningizdan joy olar ekan, mutolaadan so'ng yuragingizdagi Ona Yurtga, Ona Vatanga bo'lgan mehr-u muhabbat uchqunlari yanada alangalanishiga chin dildan ishonamiz.

Mas'ul muharrir: **Iqbol Mirzo,**

O'zbekiston xalq shoiri

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» respublika yosh ijodkorlar seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*



ISBN 978-9943-985-37-7

© Zebō Xudoyberdiyeva

«Yo'l boshida»

© «Akademnashr», 2015

## O'CHMAS MASH'ALA

Bugun yigirmaga kirmay ijodining qadrlanayotganidan yuragi g'urur-u faxrga to'lgan ijodkor yoshlarimiz o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'ymoqda. Chunki u qo'lidagi «**Birinchi kitobim**» loyihasida chop etilgan ilk kitobchasiga boqib kelajakda shu yurtga kerakligini, yurti oldidagi burch va vazifalarini ado etishda matonatli bo'lishi lozimligini katta hayajon bilan his qilmoqda. Yurt sha'ni, o'z xalqining milliy an'analarini, yuksak insoniylik, muhabbat, sadoqat tuyg'ularini o'zida mujassam etgan she'rlar va hikoyalar mualliflari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilayotgan «Iste'dod maktabi» seminarlarida kashf etilmoqda. Besh yil mobaynida ushbu seminarda faol qatnashib kelayotgan yoshlarimiz respublikamiz bo'ylab o'tkazilayotgan har bir bayram tadbirida o'zlarining ijod namunalari bilan qatnashib, ustozlar ishonchini oqlamoqdalar. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbusi bilan ijodkor yoshlarimiz hayotida unutilmas an'anaga aylangan ushbu loyiha yurtimizda adabiyotga berilayotgan katta e'tiborning yorqin samarasi bo'lib, ijodkorga, o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yish, Vataniga, qalamiga sodiq qolmoqlik mas'uliyatini yuklaydi.

Ushbu jajjigina kitobchalar qo'lingizga yetib borishi bilan siz muxlislarning ham qalbingizda g'urur va faxr tuyg'usini uyg'otishiga ishonamiz. Zero, yoshlikning nashidasi ufurib turgan ijod namunalari qalblarda o'chmas mash'ala bo'lib porlab turadi.

## DO'RMON

Ne-ne daholarni asradi Do'rmon,  
Buyuklar quvonchi, hasrati Do'rmon.  
Mukarram ma'vosan, mo'tabar go'sha,  
Assalomu alaykum, Hazrati Do'rmon.

Sen G'afur G'ulomning adl chinori,  
Hamid Olimjonning sha'n-iftixori,  
Mirtemir domlaning o'lmas alyori,  
Assalomu alaykum, Hazrati Do'rmon.

Sendan ilhom topgan Abdullalaring,  
Muhammadga tushgan nur, shu'lalaring,  
Sir-asrorga to'la quchog'ing, bag'ring,  
Assalomu alaykum, Hazrati Do'rmon.

Mendan ham qolgaymi biror esdalik,  
Qo'rqib qadam qo'ydim, ko'nglimda hadik,  
«Qizim, kela qol», – deb olgaysan alik,  
Assalomu alaykum, Hazrati Do'rmon!

## KITOBLAR

Oylar o'tar, oy botar,  
Aylanadi oftoblar.  
Meni tunda uyg'otar  
O'qilmagan kitoblar.

Tan o'troq, xayol daydi,  
Bunday yashab bo'lmaydi.  
Do'st kerakmasmi deydi  
O'qilmagan kitoblar.

Nega so'zimiz to'mtoq,  
Nega xatimiz cho'ltoq?  
Bariga sabab, o'rtoq,  
O'qilmagan kitoblar.

Komil, mumtoz kitoblar,  
Oqil ustoz kitoblar,  
Rost, beqiyos kitoblar –  
O'qilmagan kitoblar.

Yoshlik – beqaror shamol,  
Tezda to'lishgay hilol.  
Sizga javob va savol –  
O'qilmagan kitoblar.

Boburning tushlari bu,  
Temur yurishlari bu,  
Tafakkur g'ishtlari bu –  
O'qilmagan kitoblar.

Oylar o'tar, oy botar,  
Aylanadi oftoblar.  
Sizlarni ham uyg'otsin  
O'qilmagan kitoblar!

## KUMUSHOYNING ARAVASI

Gul-chechaklar sochadi ifor  
Fasli visol arafasida.  
Chayqalgancha boradi bahor  
Kumushoyning aravasida.

Asht dashtidan taralar ro'yo,  
Soylar kumush nur separ go'yo,  
Aravaga oy tushganmi yo  
Kumush oyning aravasida.

Taraddudda yo'l qaraydi bek,  
Yo'lga peshvoz chiqolmaydi lek,  
O'zbekoyim... oyimlar o'zbek,  
Kumushoyning aravasida.

Charx uradi qaldirg'och pastlab,  
Vijirlaydi ko'ngilni g'ashlab ,  
Hijron bosar qamchi yo'l boshlab  
Kumushoyning aravasida.

Zaynabxonim uyg'onib sahar,  
Ko'z yosh qo'shib tayyorlar zahar,  
Men ham birga bo'lsaydim agar  
Kumushoyning aravasida.

Ot yoliga yopishar edim,  
Ot oldiga yo tushar edim,  
Jon opa, qayt, opajon, derdim...  
Kumushoyning aravasida...

## TUPROQ

Kulol uchun ashyo u,  
Dasturxondir cho'ponga.  
Chumoliga oshyon-u  
Boshpanadir qoplonga.

Yulduzlarga boqsak ham,  
Poyimizda shu tuproq  
Va borajak so'nggi dam  
Joyimiz-da shu tuproq.

Bizga tuz-u non bergan,  
Saxovatli tuproq bu.  
Mard bobolar jon bergan,  
Mahobatli tuproq bu.

Yaralganmiz shu yerdan,  
Bir kun unga qaytarmiz.  
Barchamiz bo'lib bir tan  
Onajon deb aytarmiz.

Shu tuproq, ona tuproq  
Hatto so'nggi pallalar  
Bizlarga ochib quchoq,  
Osoyishta allalar.

## FAXRIYA

*Shu erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg'onaman.*

**Muqimiy**

Ko'rmam ko'nglim kuyar, oh, ko'rmam devonaman,  
Farg'ona, Farg'onajon, jon onajon deb yonaman.

Farg'oniy bobolarim yoqib ketmishlar shamchiroq,  
Men uning shu'lasida aylanib parvonaman.

Yurtsevarlik xislati o'tmish Huvaydodan menga,  
Kimning ko'ngliga tushsa darz, men tamom  
vayronaman.

Mustaqillik malikasi yangi Farg'onamni ko'ring,  
Men o'zim shahrimga boqsam lolman-u hayronaman.

Atlas-u adras ichinda bo'ldi zebo bu chaman,  
Shu erur baxtimki, Zebo, mardumi Farg'onaman.



## TARAQQIYOT

Taraqqiyot: asfalt yo'l,  
Qavat-qavat binolar.  
Internet-kafe. Stul  
Va virtual dunyolar...

Bir gap aytsam, dugona,  
Pesh qilasan zamonni.  
Ketgim kelyapti yana,  
Sog'inibman Chimyonni.

Sog'inibman qizg'aldoq  
Alvon-alvon tomlarni.  
Sog'indim bekinmashoq  
O'ynagan oqshomlarni.

Menga uzr, men ketdim,  
Tabiat: keng dalalar.  
Salom, ko'ylagi g'ijim,  
Qo'y haydagan bolalar!

## ZULFIYAXONIM

Men-ku bir boshlovchi, ilhomim jo'shib  
Har gal qo'lga qalam olganim onim –  
Munosib so'z topa olasanmi deb,  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

She'riyat taqdirdir, ermak emas deb,  
Mening ko'rganlarim ertak emas deb,  
Mubolag'a shart, yolg'on kerak emas deb,  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

«Umrning ikkinchi ismidir hijron,  
Men ko'rgan azobni chekmasin hech jon,  
Qayerga qarasam... Hamid Olimjon...»  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

Hayot sinovidan o'tasanmi deb,  
Yuragingni guldek tutasanmi deb,  
Ayrilsang o'lguncha kutasanmi deb  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

Avaylab, erkalab tilingni, qizim,  
Sarishta, pok tutib dilingni, qizim,  
Xushnud etgaymisan elingni, qizim?  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

Yashasang ezgulik, mehr, ziyo deb,  
Ismingni tanigay bir kun dunyo deb,  
Yoz bolam, yozaver qizim, Zebo, deb,  
Qarab turar menga Zulfiyaxonim.

## YO'L BOSHIDA

Yo'l boshida turibman,  
Qayga eltar yo'llarim?  
Ehtimol, baxt gullagan  
Joyga eltar yo'llarim.

Bu yo'llardan ilgari  
O'tganlar ham bormikin?  
Shu tufayli o'z yo'lin  
Tutganlar ham bormikin?

Tol shoxidek taralgan  
Yo'llar ko'p-a, yoronlar?  
Bu yo'llarda yo'limni  
To'smasmikin bo'ronlar?

Yuragim – yo'l ko'rsatkich,  
Yo'l yuraman, tolmayman.  
Tanlagan manzirim bor,  
O'z yo'limdan qolmayman.

## TUMAN

Tuman tushdi.

Daraxtlar namiqib, junjikadi.

Loyqa havoga cho'mdi o'zanlar-u qirg'oqlar.

Tun yarmini kunduzga sochgandek ko'rinadi,

Faqat o'zin yoritar ayvondagi chiroqlar.

Tumanning umri qisqa.

U yolg'onga o'xshaydi.

Do'stim, tuman bag'rini kesib borgin qasdma-qasd.

Tuman, asli, jur'atsiz yuraklarda yashaydi,

Quyosh chirog'in yoqsa, undan g'ubor ham qolmas.

## TESHIKTOSH

Chimyon etagida bir saylgoh bor,  
Teshiktosh deyishar uning otini.  
Bu oshyon o'ziga chorlaydi takror  
Hojatmand zotini, sayyoh zotini.

Kim tosh teshigidan o'tsa gunohsiz,  
Gunohkor bandani qisib qolgay tosh.  
Shunday ajrim bo'lar savob-u gunoh,  
Shunday sodda tarzda gumroh bo'lar fosh.

Vo ajab, to'qson yil yashagan enam  
Ko'rmabdi tosh qisgan biror insonni.  
Yuz bor o'tgandirman kovakdan men ham,  
Men ham ko'rmaganman bir tutqun jonni.

Kuzatsam, har kimsa izlar o'zga yo'l,  
O'ylasam, o'ylanib tashlar qadamlar.  
Teshiktoshga kelmas semizlar butkul,  
O'zini uradi oriq odamlar.

## SUVRAT

Suvda olam aks etar,  
Ba'zan quyosh, ba'zan oy.  
Suvratni qayga eltar  
Shoshqaloq musavvir – soy?

Ko'klam chog'i bir o'zim  
Soy bo'yida yurgandim.  
Nogoh tushgandi ko'zim,  
Bir yigitni ko'rgandim.

Bir bor ko'rsat rasmin deb  
Har kun soydan so'rayman.  
Meni qiynama hadeb,  
Hech qursa... bir ko'ray man.

Yoniga borolmayman,  
Jazmim yetmas jur'atga.  
Qiyoslab ko'rsam deyman  
Qalbindagi suvratga...

## RO'MOL

Birdan qo'limdan yulqib  
Olib qochdi-yu shamol.  
Yangi oy o'rog'iga  
Ilinib qoldi ro'mol.

Ro'molim ko'p, aslida,  
Ketaversam bo'lardi.  
Lekin bezori shamol  
Qah-qah otib kulardi.

Ketsam agar, guvlanib  
Ro'molimni oladi.  
Yor yo'liga tashlasa,  
Keyin nima bo'ladi?

Ro'molim ko'p, aslida,  
Bu ag'yorning g'ovg'asi.  
Shamol guvoh, bu ro'mol  
Sevgilimning sovg'asi.

Yalinaymi shamolga  
Yo beparvo ketaymi?  
Ta'zirini bersinmi,  
Rashkchi yorga aytaymi?

Bosh chayqaydi qari tol,  
O'mbaloq oshar shamol.  
Yangi oy o'rog'ida  
Hilpirab turar ro'mol.

## ONA TILIM

Ona tilim – yagona tilim,  
Marjon tilim, durdona tilim.  
Ey, dilimning kumush ko'zgusi,  
Munis tilim, mardona tilim.

Qiyofamsan, o'zimga xossan,  
Tilmochimsan, ko'nglimni yozsam,  
Hazrat Navoiydan merossan,  
Qutlug' tilim, shohona tilim.

Onam tili, otam so'zisan,  
Mardi-maydon Hotam so'zisan,  
Sen Bobur Mirzoning o'zisan,  
Furqatlarga hamxona tilim.

Sen bor, meni taniydi dunyo,  
Bu Ovro'pa, bunda Osiyo,  
Men Zeboman, sen mendan zebo,  
Ona tilim, yagona tilim.



## NAVRO‘Z


Yo‘lingda intizor, intiqdir ko‘zim,  
Qutlug‘ qadamingdan aylanay o‘zim.  
Buncha sog‘intirding, buncha kutdirding,  
Kela qol, Bahorim, kelgin, Navro‘zim!

Yurtimning har faslin tarovati bor,  
Sabosi, ayozi, harorati bor,  
Jannat bog‘larining halovati bor,  
Kela qol, Bahorim, kelgin, Navro‘zim!

Bu yil qish cho‘zildi – haqqi qolmadi,  
Izg‘irin izillab, kun-tun tolmadi,  
Lekin yuraklarni sovuq olmadi,  
Kela qol, Bahorim, kelgin, Navro‘zim!

Ichikib qolmasin dasht-u dalalar,  
Xazonni yopinib yotgan lolalar,  
Varragin ipini ular bolalar...  
Kela qol, Bahorim, kelgin, Navro‘zim!

Ipakdek mayinsan, atlas nasimsan,  
Bulbullar tilida navo-nazmsan,  
Sen mening gul faslim – o‘n sakkizimsan,  
Kela qol, Bahorim, kelgin, Navro‘zim!



## NAVNIHOL

Navnihol bergay darak avji kamoldan qomating,  
Sinmasin, egilmasin nogoh shamoldan qomating.

Erkalab mehri bilan bogʻbon tarabdir kokiling,  
Kunduz quyoshdan oldi nur, tunda hiloldan qomating.

Sen oʻzing gʻayrat et, tomirlaringni tashla keng,  
Boʻlmasin dol charx qoʻygan ogʻir savoldan qomating.

Aylanib erkin sabolar ozod qoʻshiqlar aytadir,  
Raqs tushar yaproqlaring, sarxush bu holdan qomating.

Qorli togʻlar suvlaridan bahra oldik ikkimiz,  
Zeboyng der asrasin koʻzdan, zavoldan qomating.

## LOLAJON

Keng adirda yastanib  
Xandon bo'lgan lolajon.  
Xandon bo'lib chiroyi  
Chandon bo'lgan lolajon.

Yanoqlari ollanib,  
Qomatlari sollanib,  
Qiyog'ida shabnamlar  
Marjon bo'lgan lolajon.

La'li gulkosasini  
Oy nuriga to'ldirib,  
Kecha-kunduz o'ltirib  
Maston bo'lgan lolajon.

Gul sayliga chiqqanning  
Qo'liga tushib nogoh,  
Bir oh urib, urmay oh  
Qurbon bo'lgan lolajon.

Qo'ldan o'tib qo'llarga,  
Bargi tushib yo'llarga,  
Shaddod qizlar bazmida  
Sarson bo'lgan lolajon.

Ey, avvali ochilib,  
Xandon bo'lgan lolajon.  
Yengil tuyg'ular aro  
Arzon bo'lgan lolajon.

Ko'ring baxti qaroni,  
Ko'rib-ko'rmay dunyoni  
Ado qildi Zeboni  
Xazon bo'lgan lolajon.

## KITOB

Uloqib ketishdi bolalar,  
Aqli odamlar aytinglar.  
Aytinglar, ammalar, xolalar:  
«Bolalar, kitobga qaytinglar!»

Nima bor kitobdan-da gashtli?  
Kim undan ketsa tez adashdi,  
Sizni ajinalar aldashdi,  
Bolalar, kitobga qaytinglar.

Quruq va sovuq bu o'yinlar,  
Aqlning egovi, qo'yinglar,  
Kitobni erkalab, suyinglar,  
Bolalar, kitobga qaytinglar!

Kitobdir tafakkur gultoji,  
Millatning, Vatanning rivoji,  
Boshqa gap yo'q, bo'lsa iloji,  
Bolalar, kitobga qaytinglar!

O'qiganga tole kuladi,  
G'olib el asl tolib bo'ladi,  
Kitobxon xalq g'olib bo'ladi,  
Bolalar, kitobga qaytinglar!

## IKKI SO‘Z

«Xayr» bilan xayrlashganman,  
Yuz ko‘rishmas bo‘lganmiz, tamom.  
Bir sodiq do‘st topib olganman,  
Uning ismi jo‘ngina «salom».

Shodon yashab o‘tsin har inson,  
Baxtli bo‘lsin xuddi men misol.  
«Xayr» degan so‘z, albat, hijron,  
«Salom» degan so‘z demak visol.

## GULDASTA

Menga gul tutdingiz – bir quchoq quvonch,  
Birdan yashnab ketdi bag'rimda bahor.  
Yana nima kerak bitta qiz uchun,  
Yana bundan ortiq menga ne darkor?

Gullar... biram nafis, biram muattar,  
Ko'zim uzolmayman zavq-u havasda.  
Bu tuhfa nelardan beradi xabar,  
Nimaga ishora alvon guldasta?

Kimdir tartib bermish nozik did bilan,  
Suvqog'ozga o'rab, tortmish bog'ichlar.  
Gulbarg qatlarida mehr yashirin,  
Gulkosa tubida nimkosa – sog'inch...

Guldasta – tuyg'ular dastasi axir,  
Bir quchoq hissiyot, bir quchoq izhor.  
Gullar zamirida boshqalarga sir,  
Ikkimizga ayon ko'p ishora bor.

## G'UNCHA

Yuragim – g'unchadek qirmiz tuguncha,  
Odamlar dilozor, yomon-a buncha!  
Netay, sig'may qoldim yorug' olamga,  
Meni quchog'ingga yashirgin, g'uncha!

G'iybatchi, maydagap dugonalardan,  
Har biri o'zicha yagonalardan,  
Tili do'st-u dili begonalardan  
Meni quchog'ingga yashirgin, g'uncha!

Sen mening sirdoshim, dildoshim yolg'iz,  
Sening ham bag'ring qon, yuraging qirmiz,  
«Yoriltosh»ga kirib qolgan kabi qiz,  
Meni quchog'ingga yashirgin, g'uncha!

Pista po'chog'idek arzon sevgidan,  
Ikki manzil aro sarson sevgidan,  
Qalbaki sevgidan, yolg'on sevgidan  
Meni quchog'ingga yashirgin, g'uncha!

Sevgi o'z o'rnini barhaq topguncha,  
Bir yigit tiz cho'kib barging o'pguncha  
«Yoril, gul, yorimni ko'ray», – deguncha  
Meni quchog'ingga yashirgin, g'uncha!

## DUGONALARIMGA

O'n sakkizdan oshgan qizlar, shoshmanglar,  
Tuyg'ulari toshgan qizlar, shoshmanglar.  
Kasb-u hunar, ilm desa paysallab,  
Sevilishga shoshgan qizlar, shoshmanglar.

Toshga o'yib yozilgandir bugun fan,  
O'qisangiz, muhrlangay butun fan,  
Nafaqaga chiqib olmang bugundan,  
Dunyo quchoq ochgan qizlar, shoshmanglar.

Ulgurasiz o'sha g'orga, ro'zg'orga,  
Yetishasiz o'sha yorga, ayyorga,  
Izlaning-da o'rganmasdan tayyorga,  
Havasleri jo'shgan qizlar, shoshmanglar.

Har bir inson mo'jizadir, shubhasiz,  
Mo'jizadan qolsin biror mo'jaz iz,  
Hech narsaga yolchimaydi shoshgan qiz,  
Shoshgan qizlar, shoshgan qizlar, shoshmanglar!



## BO'LGAY

Qiz ko'nglini oyoqosti qilganlar  
Ko'karmaydi, tuproq quchib xor bo'lgay.  
Qiz ko'zini yoshlab, bag'rin tilganlar  
Bir kun kelib bir nigohga zor bo'lgay.

Qizg'aldoqning qanotidan harir dil,  
Sevgi degan haroratdan erir dil,  
Yor sevmasa, gul yoshida qarir dil,  
Yor sevganda hamisha bahor bo'lgay.

Yigit kishi buzar bo'lsa ontini,  
Sadqayi sar, yigit dema otini,  
Kimki bo'lsa bundaylarning xotini,  
Kokillari o'z bo'yniga dor bo'lgay.

Sen ishonma qora qosh-u ko'ziga,  
Dil bog'lama so'zamolning so'ziga,  
Aldab-avrab rom aylaydi o'ziga,  
Asli, o'zi «oshiq beqaror» bo'lgay.

Men hech kimga bermayman dil-dunyoni,  
Yuraginga yashirganman ziyoni,  
Siz takabbur demang shoir Zeboni,  
Tengin topsa o'zi xaridor bo'lgay.

## BO'LMASA

Gul nadir, yaproq nadir, gulbargi xandon bo'lmasa,  
Dil nadir, ko'ngil nadir, osuda osmon bo'lmasa.

Aylanib hayronadirman ko'hna ishq bozorida,  
Har neki mulki ko'ngildir buncha arzon bo'lmasa.

Ishq axir tansiq erur azob-u qiynog'i bilan,  
Qays magar topgaymidi e'tibor sarson bo'lmasa.

Savdoyi ishq qomatingni egsa elning ermagi,  
Kim boqur ul og'ochgakim, qaddi larzon bo'lmasa.

Ayb etmangiz, Zebo bugun ishq uchun yozmish qo'shiq,  
Ko'zda yosh marjon-u she'rda fikri marjon bo'lmasa.

## BILARMIKINSIZ

Mening borligimni bilarmikinsiz,  
Sizga zorligimni bilarmikinsiz,  
Koʻrmasam dilxun-u koʻrgan kunlarim  
Baxtiyorligimni bilarmikinsiz?

Beparvo oʻtasiz, hardamxayolsiz,  
Sayr qilib yurasiz har dam, ha, yolgʻiz,  
Men uchun hamisha hamdam-xayolsiz,  
Umidvorligimni bilarmikinsiz?

Mening ham ortimdan yurganlar qancha,  
Yolgʻon-rost soʻzlab, oh urganlar qancha,  
Menda oʻz baxtini koʻrganlar qancha,  
Men-chi xorligimni bilarmikinsiz?

Men sizga, siz esa begonaga zor,  
Ehtimol, u qiz ham boshqasiga yor,  
Siz majnunshevasiz, men laylishior,  
Faqat borligimni bilarmikinsiz?

## BAYROQ

Hilpirab turar bayroq litseyim peshtoqida,  
Har tong qo'lim ko'ksimda ta'zim qilib o'taman.  
Bayrog'im ko'tarilsa har gal Olimp toqida,  
Ko'zda yosh, pichirlayman: «G'alabang bilan, Vatan!»

Bayrog'imning oq rangi o'zbek ko'ngliga timsol,  
Yam-yashil bog'-rog'larim, hayot ramzi bor unda.  
Yulduzlarni achomlab, yog'du sochadi hilol,  
Moviy osmon bulutsiz, sof va beg'ubor unda.

Do'stlar, ozod Vatanda har bir kun bayram, asli,  
Yana birov bormikan bizdan baxtliroq, boyroq?  
Erkin qadam tashlaydi bugun Istiqlol nasli,  
Boshimizda hilpirar erkin, muzaffar bayroq!

## ARI

Dunyoda mavjuddir ikki xil ari,  
Biri o'zi uchun yashar bemalol.  
Yaxshilik yo'lida halakdir biri,  
Hatto yantoqdan ham yig'a olar bol.

Bolari biz uchun ibrat maktabi,  
Hayotni sevaylik, yashaylik hurram.  
Ezgulik – insonning asl matlabi,  
Yaxshilik topaylik yomonlardan ham.

*Izoh va qaydlar*

WWW.NATLIB.UZ

## Mundarija

O'chmas mash'ala .....	3
Do'rmon .....	4
Kitoblar.....	5
Kumushoyning aravasi.....	6
Tuproq .....	7
Faxriya.....	8
Taraqkiyot .....	9
Zulfiyaxonim .....	10
Yo'l boshida .....	11
Tuman.....	12
Teshiktosh .....	13
Suvrat .....	14
Ro'mol .....	15
Ona tilim.....	16
Navro'z.....	17
Navnihol .....	18
Lolajon .....	19
Kitob .....	20
Ikki so'z.....	21
Guldasta .....	22
G'uncha.....	23
Dugonalarimga.....	24
Bo'lgay .....	25
Bo'lmasa .....	26
Bilarmikinsiz.....	27
Bayroq.....	28
Ari .....	29

4000 C

**Zebo Xudoyberdiyeva**

## **YO‘L BOSHIDA**

**She‘rlar**

**Muharrir:** Abdulla SHAROPOV  
**Badiiy muharrir:** Bahriddin BOZOROV  
**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV  
**Sahifalovchi:** Inomjon O‘SAROV  
**Musahhih:** Otabek BOQIYEV

*Muqovada rassom Shokir Zokirov  
asaridan foydalanildi*

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009  
Terishga berildi: 02.03.2015-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 11.05.2015-y.  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 70x90  $\frac{1}{32}$ .  
Schoolbook garniturası. Ofset bosma.  
Hisob-nashriyot t.: 0,70. Shartli b.t.: 1.17.  
Adadi: 20000 nusxa.  
Buyurtma № 107.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.  
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77  
e-mail: info@akademnashr.uz  
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.  
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko‘chasi 44-uy.